

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



INNOVATSIYA

SAVDO

RAQAMLI

MARKETING

BIZNES

TADQIQOT

BRENDING

№4-SON

2025-YIL, APREL

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otobek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elektron nashr 720 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 30-aprelda ruxsat etildi

MUNDARIJA

XORAZM VILOYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	9
Otajanov Umid Ablullayevich	
SANOAT KORXONALARIDA ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	21
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA "IQTISODIYOT" YO'NALISHLARINING SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	32
Bayhonov Baxodir Tursunbayevich, Saydullayeva Saodat Abdumajitovna	
XALQARO FRANSHIZALAR FAOLIYATI RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	44
Xodjayev Anvar Rasulovich	
RAQOBAT SHAROITIDA ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI	56
Saidov Mash'al Samadovich, Soliyev Rahmatjon	
ТУРИСТСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА: ЦЕЛЕВОЙ ПОРТРЕТ КИТАЙСКОГО ТУРИСТА	63
Голышева Е.В. , Мурадова Л.Т.	
MINTAQADA MEHNAT RESURLARI DINAMIKASINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	78
Kurbanov Feruz Pirnazarovich	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	87
Turopov Maqsudjon Asatillo o'g'li	
KADRLAR TANLOVINING AUTSORSING TIZIMIGA ASOSLANGAN YANGI BOSQICHINI AMALIYOTGA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	97
Isroilov Islomiddin Kamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURISTIK OQIM MAVSUMIYLIGI BARQARORLIGINI BOSHQARISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI	104
Fayazov Muxiddin Sobirovich	
KO'SHMAS MULKNI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	113
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	127
Raximov Ilyos Ikramovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM TARMOQLARINI SINERGETIK RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	137
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	147
Tohirxo‘jayeva Dilafro‘z Toir qizi, Saidov Mash‘al Samadovich	
ELEKTRON TIJORATDA QADOQLASH VA YETKAZIB BERISH TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH YO‘LLARI.....	157
Ismoilova Gulnora Fayzullaevna, Xusnora Pardaboyeva	
TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASH ORQALI AHOLI UCHUN YANGI DAROMAD IMKONIYATLARINI YARATISH	164
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li	
ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ КОНКУРЕНЦИИ.....	171
Икрамов Мурат Акрамович, Буриев Хаким Тошимович, Файзуллаев Шухрат Шерали Угли	
О‘ZBEKISTONDA SOLIQ ISLOHOTLARINING BIZNESGA TA‘SIRI.....	178
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
OZIQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA‘SIRINI BAHOLASH	184
Tursunova Dilnavoz Davron qizi	
О‘ZBEKISTONDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	193
Xotamov Ibodullo Sadulloyevich	
SUN‘IY INTELLEKTNII ELEKTRON TIJORATDAGI O‘RNI	204
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna, Shayzoqova Munisa Meliqo‘zi qizi	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA KIMYO TOLALARI ISHLAB CHIQARISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMAT YARATISH ISTIQBOLLARI.....	210
Raximov Furqat Jalalovich	
UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH	224
Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА РАЗВИТИЕ КАНАЛОВ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ ООО “SAMARKAND-APPAREL”).....	232
Мусаева Шоира Азимовна	
SANOATDA ISHLAB CHIQARISHGA YO‘NALTIRILGAN INVESTITSİYALARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	242
Qorabayev Shuhratjon Axmadjonovich	
QORAMOLCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TARKIBIY-MIQDORIY O‘ZGARISHLAR TAHLILI	250
Otaxonova Odinaxon Inomovna	
SANOAT TOVARLARI IMPORTI O‘RNINI BOSISH SIYOSATI — IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	260
Muratova Shohista Nimatullayevna	

MINTAQAVIY OZIYQ-OVQAT BOZORINING SHAKLLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	270
Mirtoev Axrorbek Abdulpattovovich	
MINTAQALAR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI ILMIY TAHLIL QILISHGA NAZARIY YONDASHUV LAR.....	278
Ismoilov Alisher Jobir o'g'li	
AHOLIGA YUK TASHISH XIZMATINI KO'RSATISH STRATEGIYASI.....	285
Ergasheva Muxabbat Abdusamatovna, Nuritdinov Jaloliddin Djamolovich	
SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA ITQISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	293
Donayeva Feruza Burxon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHSIZLIK DARAJASINING STATISTIK TAHLILI.....	302
Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna	
MINTAQADA TABIY RESURLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY-EKOLOGIK RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	308
Sapaev Maxsudbek Karimovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI SEGMENTLASH ASOSIDA SOLIQ XAVFLARINI ANIQLASH VA BAHOLASHNING AMALIY YONDASHUV LARI	315
Elbaeva Muqaddas Rashidovna	
BANK AKTIV LARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI	321
Absamatov Anvar Ergashevich	
LOGISTIKADA OMBORXONA XO'JALIGI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	329
Boymatov O'tkirbek Tilovmurod o'g'li	
MAHALLALAR UCHUN UZOQ MUDDATLI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	336
Kurbonbekova Mohichehra Turabjanovna, Ostonoqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, Eshpulatova Muazzam Barnoyevna, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA EMISSION FAOLIYATI TAHLILI	352
Mutalova Malika Saydullayevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING BARQAROR RIVOJLANISHINI BAHOLASHGA YONDASHUV LAR	359
Norboyev Sarvar Azodovich	
MAISHIY KIMYO TOVARLARI B2B BOZORIDA SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA TAQSIMOT KANALLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	365
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	

O‘ZBEKISTONDA KICHIK KORXONA VA MIKROFIRMALARNING RIVOJLANGANLIK DARAJASINI STATISTIK BAHOLASH.....	375
Sharipov Ixtiyor Baxtiyorovich	
GLOBAL RAQOBAT SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	384
Tashnazarov Sur’atjon Abdullayevich	
INTEGRATING UZBEKISTAN STATE BUDGET STRATEGIES WITH FINANCIAL LITERACY FOR ECONOMIC PROSPERITY.....	389
Tursunqulov Ravshan Abdulxay o‘g‘li, Saydaqulov Ravshan Aliboyevich	
O‘ZBEKISTONDA MICE TURIZMI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH VA SERVIS SIFATI MUAMMOLARI	398
Xalimova Fayyoz Nafasovna	
O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA ISTIQBOLLI DRAYVER SOHALARNING O‘RNI.....	405
Xolbozorov Muzraf Yusup o‘g‘li	
OZIQ-OVQAT BOZORI KONYUNKTURASINI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	417
Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich	
KORXONADA INQIROZGA QARSHI BOSHQARISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	426
Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich, Kamolov Faxriddin Xusniddin o‘g‘li	
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASHNING XALQARO AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTONDAGI HOLATI.....	435
Madraximov Umirbek Muxammadovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH VA BOSHQARUV MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	443
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Fayzullayev Ulug‘bek Tursunbayevich	
SANOAT KORXONALARIDA SAMARALI KORPORATIV BOSHQARUV ASOSIDA RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI	451
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
ZAMONAVIY ELEKTROTEXNIKA SANOATINING GLOBAL MIQYOSDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	461
Sultonova Xilola Jamolutdinovna	
MODALAR BIZNESIDA “YASHIL BREND” MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	468
Ziyayeva Shaxlo Shoakbar qizi	
MINTAQADA TURIZM SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY MEDIA MARKETINGIDAN FOYDALANISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	476
Bekjanov Dilmurad Yuldashovich, Samandarova Mohinur Qadamboy qizi	
REKLAMADA ISHONTIRISH VA KREATIV XABAR STRATEGIYASI	488
Safarov Alisher Yunusaliyevich	

O‘ZBEKISTONDA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH: MARKAZ VA CHEKKA HUDUDLAR O‘RTASIDAGI FARQLAR.....	500
Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi, Hoshimov Islomxon Ilyorjon o‘g‘li	
KORXONALAR AYLANMA MABLAG‘LARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI.....	514
Burxanov Aktam Usmanovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI.....	522
Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barxayotjon Azizjon o‘g‘li	
SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	530
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI.....	537
Satvoldiyev Ulug‘bek Kamilovich	
TOZALIK VOSITALARI ISHLAB CHIQARUVCHI SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	545
Baqoyeva Dilfuza Maqsud qizi	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	555
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
XORAZM VILOYATIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	567
Xolmuratov Xolilla Sariyevich	
LATVIYADA SOLIQ REYTINGI TIZIMI: FISKAL INTIZOM VA HALOL BIZNESNI RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI.....	586
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
РОЛЬ АРОМАМАРКЕТИНГА В ФОРМИРОВАНИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ ПРИВЯЗАННОСТИ К БРЕНДУ	603
Кутбитдинова Мохигул Иноятовна, Матризаева Диларам Юсупбаевна	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITDA AKT SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	612
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
TRANSPORT XIZMATLARI KO‘RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	617
Rajabov Qurbon Sulaymonovich	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA HORIJIY MAMLAKATLAR STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	626
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI ORQALI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	635
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	

MINTAQADA MOLIYAVIY XIZMATLAR KO'RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	644
Jo'rayev Shermat Isroilovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAHAR AGLOMERATSIYALARI UCHUN EKOLOGIK-GEOLOGIK TADQIQOTLARDA ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	651
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQUARISHNI TASHKIL ETISH	661
Haqberdiev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY TABAQALASHUV DARAJASINI STRATEGIK TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH....	671
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
SUG'URTA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA UNI KUCHAYTIRISH STRATEGIYALARI	679
Umirov Abdisalom To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	686
Abdullayev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI.....	694
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH MATERIALLARI SANOATI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI	702
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li, Ollayorov Behruzbek Sardor o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA RAQAMLI KORPORATIV BOSHQARUV MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH: XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY AMALIYOT TAHLILI	709
Ismailov Allayor Rashidovich	

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDA EMISSION FAOLIYATI TAHLILI

Mutalova Malika Saydullayevna

“Asakabank” AJ Xodimlarni
boshqarish departamenti direktori

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi emissiya faoliyati tahlil etilgan. Maqolada banklarning qimmatli qog‘ozlar bozorida emitent, investor va investitsion vositachi sifatida amalga oshirayotgan faoliyati, amaldagi qonunchilik asoslari hamda bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot davomida milliy va xalqaro tajribalar asosida tijorat banklari emissiya faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan hamda amaliyotda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tahlil natijalari mamlakat moliya bozorini yanada rivojlantirish va banklar faolligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, qimmatli qog‘ozlar bozori, emissiya faoliyati, investitsiya faolligi, moliya bozori, qonunchilik, bank faoliyati.

Аннотация

В статье проведён анализ эмиссионной деятельности коммерческих банков Республики Узбекистан на рынке ценных бумаг. Рассмотрена роль банков в качестве эмитентов, инвесторов и инвестиционных посредников, проанализированы законодательные основы и уровень развития инфраструктуры рынка. В ходе исследования изучены особенности эмиссионной деятельности коммерческих банков на основе национального и международного опыта, выявлены существующие проблемы и разработаны предложения по их устранению. Результаты анализа служат основой для разработки практических рекомендаций по дальнейшему развитию финансового рынка страны и повышению активности банков.

Ключевые слова: коммерческий банк, рынок ценных бумаг, эмиссионная деятельность, инвестиционная активность, финансовый рынок, законодательство, банковская деятельность.

Abstract

This article analyzes the emission activities of commercial banks of the Republic of Uzbekistan in the securities market. The study examines the role of banks as issuers, investors, and investment intermediaries, and analyzes the legislative framework and the level of market infrastructure development. Based on national and international practices, the specific features of commercial banks' emission activities are identified, existing issues are highlighted, and recommendations for improvement are developed. The findings provide a basis for practical recommendations aimed at further developing the country's financial market and enhancing banks' activity.

Keywords: commercial bank, securities market, emission activity, investment activity, financial market, legislation, banking operations.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi kapital bozorini yanada rivojlantirish, uning infratuzilmasini takomillashtirish, investorlarni kapital bozoriga jalb etishni rag‘batlantirish, chet el investorlari uchun mahalliy fond bozorida qatnashish tartibini soddalashtirish va investorlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida tizimli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Banklar, shu jumladan, ularning qimmatli qog‘ozlar bozorida emitent, investor, investitsion vositachi va boshqa faoliyatlarni amalga oshirishi mumkin. Banklar qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq faoliyat turlarini O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabr O‘RQ-582-son “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida (yangi tahriri)” Qonuni¹, 2019-yil 5-noyabr O‘RQ-580-son “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida (yangi tahriri)”gi², 2015-yil 3-iyun “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida (yangi tahriri)”gi Qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq holda amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 3-iyundagi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi O‘RQ-387-son Qonuni (yangi tahriri) 3-moddasiga muvofiq: “Qimmatli qog‘ozlar — hujjatlar bo‘lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o‘rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to‘lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o‘tkazish imkoniyatini nazarda tutadi” [3-modda].

Mazkur qonunchilik talablariga asosan O‘zbekiston tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi emissiya faoliyati, mavjud tendensiyalar, muammolar va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarini ko‘rib chiqish muhim tadqiqot yo‘nalishi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish va banklarning faolligini oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishi va unda tijorat banklarining emissiya faoliyati jahon moliya amaliyotida keng o‘rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda qimmatli qog‘ozlar bozori orqali kapitalni jalb qilish, moliyaviy resurslar taqsimotini optimallashtirish va iqtisodiy o‘rnatishni rag‘batlantirish masalalari atroflicha tahlil etilgan.³⁴⁵

Tadqiqotlarda, ayniqsa, bank institutlarining qimmatli qog‘ozlar emissiyasi orqali investitsiya faolligini oshirishdagi o‘rni, emissiya jarayonidagi huquqiy va regulativ talablar, bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi hamda emitent

¹O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabr O‘RQ-582-son “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida (yangi tahriri)” Qonuni <https://www.lex.uz/docs/-4590452>

²O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida (yangi tahriri)” Qonuni , 2019-yil 5-noyabr O‘RQ-580-son “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida (yangi tahriri)”gi <https://lex.uz/ru/docs/-4581969>

³ Банковское дело. Учебник / Под ред. О.И. Лаврушина. 13-е изд. – М.: «КНОРУС», 2020. – S. 477-498; 514-522.

⁴ John Hawkins. Bond markets and banks in emerging economies. // Bank for International Settlements (BIC), vol. 11, 2002. P. 42-48, <https://econpapers.repec.org/bookchap/bisbisbpc/11-03.htm>

⁵ Tillayev X.S. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini rivojlantirish: Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2020. – 26 b.

sifatida banklarning mavqeyiga ta'sir qiluvchi omillar keng yoritilgan. Jumladan, O. Lavrushin boshchiligidagi olimlar guruhi tomonidan "Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari" doirasida qimmatli qog'ozlar bozorida bank faoliyati turlari, banklarning o'z qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarishi va joylashtirishi, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga investitsion qo'yilmalari, davlat qimmatli qog'ozlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha bank operatsiyalari va REPO bitimlari, banklarning qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisi sifatidagi faoliyati kabilar atroflicha tadqiq qilingan. Bunda tijorat banklarining fond bozoridagi vositachilik faoliyati e'tibordan chetda qolgan.

John Hawkins o'z izlanishlari davomida "Banklar o'zlari uchun obligatsiyalarni sotib olish bilan bir qatorda, ko'pincha asosiy investorlar bo'lishi mumkin bo'lgan investitsiya va pensiya fondlarini boshqarishini ham uchratishimiz mumkin. Agar bank obligatsiyalarni chiqaradigan kompaniyaga kredit ajratgan bo'lsa, u obligatsiyalarni baholashda axborot ustunligiga ega bo'lishi mumkin. Lekin bu insayderlik ma'lumotlarini saqlash bo'yicha majburiyatlar bilan bog'liq muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Ba'zi mamlakatlarda anderrayting xizmatlari banklar tomonidan emas, balki qimmatli qog'ozlar vositachilari tomonidan ko'rsatilishini ta'kidlash lozim", deb qayd etgan.

Mahalliy olimlardan X. Tillayev tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatida inflyatsiya darajasini inobatga olish lozimligiga e'tibor qaratgan. Xususan, "Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozoridagi emitent, investor yoki vositachi sifatidagi ishtirokiga iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Banklar qimmatli qog'ozlar bozorida emitent sifatida qatnashganida inflyatsiya darajasini inobatga olishi lozim", deya ta'kidlaydi.

Mazkur maqolada qimmatli qog'ozlar bozori va banklar faoliyatiga oid milliy hamda xalqaro manbalar tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitida emissiya faoliyatining o'ziga xos jihatlari va rivojlanish imkoniyatlari ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Biroq tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida emissiya faoliyatini yanada oshirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqish zaruriyati mavjud.

METODOLOGIYA


Maqolada ilmiy mushohada, kuzatish, abstrakt-mantiqiy, qiyosiy va tizimli tahlil, analiz va sintez usullaridan foydalanilgan. Ushbu maqolada mamlakatimiz kapital bozorini rivojlantirishda tijorat banklarining o'rnini yoritib berish maqsad qilingan, bunda xorijiy tajriba asosida qiyosiy yondashuv yo'llari ham ko'rib chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda banklarning jami kapitali hajmi 2023-yilda 22 foizga oshib, yil yakuni bo'yicha 97 trln so'mga, ustav kapitali miqdori esa 15 foizga o'sib, qariyb 69 trln so'mga yetgan. 2024-yilda esa ushbu ko'rsatkich 18,2 foizga oshib, 114 trln so'mni tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kapitallashuv darajasi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, ushbu o'sishning bir qismi tijorat banklari sof foydasining kapitalga yo'naltirilishi orqali yuzaga kelayotganini ko'rish mumkin.


Ushbu holat bir tomondan iqtisodiyotga qo'shimcha moliyaviy resurslar kirib kelishini anglatrsa, ikkinchi tomondan davlat ulushiga ega tijorat banklarining xususiylashtirish jarayonidagi jozibadorligini kamaytiradi (1-rasm).



1-rasm. Tijorat banklari kapitallashuvi darajasi¹ (trln.so'm)

Tijorat banklari emissiya faoliyatining birja orqali amalga oshirilishini inobatga olgan holda, ushbu jarayonni yanada yoritish maqsadida tijorat banklarining Toshkent fond birjasidagi faoliyatini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Toshkent fond birjasida 2023-yil davomida 411 870 dona birjaviy bitimlar amalga oshirilgan bo'lib, birjaviy savdo hajmi 2 712,75 mlrd so'mni tashkil etgan. Ushbu bitimlarda 107 dona emitentning 28,08 mlrd dona qimmatli qog'ozlari savdo qilingan (2-rasm).



2-rasm. Toshkent fond birjasida amalga oshirilgan bitimlar soni²

¹ O'zbekiston respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tayyorlangan

² www.uzse.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Toshkent fond birjasida 2023-yilda iqtisodiyotning 10 ta turli sohasiga tegishli emitentlarning qimmatli qogʻozlari bilan birja savdolari amalga oshirilgan. Eng koʻp bitimlar bank va sanoat sektorlari emitentlarining qimmatli qogʻozlari bilan tuzilgan. Xususan, bank sektori emitentlarining qimmatli qogʻozlari bilan 229 898 ta bitim tuzilgan boʻlib, bu birja bitimlari umumiy sonining 55,82 foizini tashkil etgan (1-jadval).

1-jadval

**Toshkent fond birjasida amalga oshirilgan bitimlar soni va summasi
toʻgʻrisida maʼlumot¹**


Tarmoqlar	Bitimlar soni, dona	Qimmatli qogʻozlar soni, dona	Bitimlar hajmi, soʻmda
Aksiyalar	5 578	2 504 773	75 561 433 417,10
Korporativ obligatsiyalar	1 267	122 723	226 835 754 926,61
Davlat qimmatli qogʻozlari	404 697	27 953 317 946	2 410 350 748 962,59
Jami	411 870	28 080 546 405	2 712 747 937 306,30

Birja operatsiyalari umumiy hajmining 22,01 foizi bank sektori qimmatli qogʻozlari hissasiga toʻgʻri kelgan. Ushbu soha emitentlari bilan tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 597,74 mlrd soʻmni tashkil etgan. Boshqa tarmoqlardagi emitentlarning qimmatli qogʻozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi 108,45 mlrd soʻmni tashkil etib, bu umumiy birja hajmining 4,00 foizini tashkil qilgan.

Aksiyadorlik jamiyatlarining energetika tarmoqlaridagi qimmatli qogʻozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi esa 702,69 mlrd soʻmni tashkil etgan. Eng kam miqdordagi bitimlar sugʻurta va agrosanoat sohalaridagi qimmatli qogʻozlar bilan amalga oshirilgan boʻlib, ular tegishli ravishda 13,9 mlrd soʻm va 17,76 mlrd soʻmlik bitimlardan iborat boʻlgan.

“Toshkent” RFBning 2023-yil yakunlari boʻyicha “Stock Market” aksiyalar bozorining G1 – “Main Board” maydonida tuzilgan bitimlar soni va hajmi boʻyicha Top-10 aksiyalar roʻyxatiga eʼtibor qaratilsa, eng koʻp bitimlar “Oʻzsanoatqurilishbank” ATBning /SQBN/ aksiyalari bilan tuzilgan. 2023-yil davomida mazkur bank aksiyalari bilan jami 87 530 dona bitim tuzilgan. 27 452 ta bitim bilan “Hamkorbank” ATBning /HMKB/ aksiyalari Top-10 talikda ikkinchi oʻrinni egallagan. Roʻyxatni “Kvarts” AJning /KVTS/ hamda “OʻzRTXB” AJning /URTS/ oddiy aksiyalari yakunlagan. Ular bilan mos ravishda 10 787 va 10 626 ta bitim tuzilgan (4-rasm).

¹www.uzse.uz maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



4-rasm. Toshkent fond birjasida amalga oshirilgan bitimlar soni¹

Toshkent fond birjasida 2023-yilda amalga oshirilgan bitimlarning eng katta hajmi “OKTOBANK” ATBning /OCBK/ oddiy aksiyalari bilan qayd etilgan — 157,35 mlrd so‘m. Undan keyingi o‘rinlarda “PERFECT INSURANCE” AJning /PFIS/ va “UzAuto Motors” AJning /UZMT/ oddiy aksiyalari joylashgan bo‘lib, ularning aksiyalari bilan mos ravishda 51,60 mlrd va 24,14 mlrd so‘mlik bitimlar tuzilgan. Yuqori o‘ntalikni “Hamkorbank” ATBning /HMKB/ hamda “OHANGARONSEMENT” AJning /OHSM/ aksiyalari bilan tuzilgan, mos ravishda 6,99 mlrd va 5,00 mlrd so‘mlik bitimlar yakunlagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalariga ko‘ra, qimmatli qog‘ozlar bozorida asosiy faollik tijorat banklari tomonidan kuzatilgan bo‘lsa-da, ushbu qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan investorlar qiziqishi past darajada qolmoqda. Buning asosiy sababi — emitentlarning dividend siyosatidagi barqarorlikning yo‘qligi va daromadlilik darajasining oshmasligidir. Ushbu muammoni bartaraf etmasdan turib, bozorga real investor oqimini ta‘minlash mushkul.

Mamlakat bank tizimini rivojlantirish, xususan, tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozorida ham emitent, ham investitsiya instituti sifatidagi faoliyatini kengaytirish orqali O‘zbekiston investitsion muhitining jozibadorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari doirasida bank faoliyatining quyidagi turlarini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi: o‘z qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarish va joylashtirish, qimmatli qog‘ozlarga investitsion qo‘shilmalar, davlat qimmatli qog‘ozlariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha bank operatsiyalari, shuningdek, banklarning qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisi sifatidagi faoliyatini kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 3-iyun O‘RQ-387-son “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-2662539>.

¹www.uzse.uz ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

2. Банковское дело. Учебник / Под ред. О.И. Лаврушина. 13-е изд. – М.: “КНОРУС”, 2020. – С. 477-498; 514-522.
3. John Hawkins. Bond markets and banks in emerging economies. // Bank for International Settlements (BIC), vol. 11, 2002. P. 42-48, <https://econpapers.repec.org/bookchap/bisbisbpc/11-03.htm>
4. Тиллаев Х.С. Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар бозоридаги фаолиятини ривожлантириш: Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати – Тошкент, 2020. – 26 б.
5. Боев Б. Акцияларни оммавий жойлаштириш амалиётини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари. PhD илмий даражасини олиш учун дисс. автореферати. Тошкент, 2021. – 56 б.
6. <https://new.openinfo.uz/facts/>.
7. www.uzse.uz



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. FOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**